G‘AFUR G‘ULOMNING “MENING O‘GRIGINA BOLAM” HIKOYASIDA MAQOLLAR TARJIMASINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Nilufar Abduxafizovna Xalimova
Mustaqil izlanuvchi, “Ipak yo’li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti
nilufar.khalimova.1992@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada G‘afur G‘ulomning “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasidagi o‘zbek xalq maqollarining ingliz tiliga tarjimasi tahlil qilinadi. Tadqiqot maqollarning ma'no, shakl va madaniy o‘ziga xoslik nuqtai nazaridan qanday ifodalanganligini o‘rganadi. Tarjimada asosan erkin tarjima va mahalliylashtirish strategiyalaridan foydalanilgan bo‘lib, ayrim o‘rinlarda so‘zma-so‘z tarjima orqali shakl va mazmun uyg‘unligiga erishilgan. Maqola o‘zbek adabiyoti tarjimasida madaniy o‘ziga xoslikni saqlash masalalarini yoritadi.*

Kalit so‘zlar: *tarjimashunoslik, maqol tarjimasi, madaniy o‘ziga xoslik, G‘afur G‘ulom, “Mening o‘g‘rigina bolam”*

Abstract. *This article analyzes the English translation of Uzbek folk proverbs found in Gafur Gulam's story, "My Little Thief." The study examines how these proverbs are rendered in terms of their meaning, form, and cultural specificity. The translation primarily employs free translation and localization strategies, while in some instances, a harmony of form and content is achieved through literal translation. The article highlights the challenges of preserving cultural specificity in the translation of Uzbek literature.*

Keywords: *translation studies, proverb translation, cultural specificity, Gafur Gulam, "My Thief Boy"*

Аннотация. *В данной статье анализируется перевод узбекских народных пословиц, использованных в рассказе Гафура Гуляма «Mening o‘g‘rigina bolam», на английский язык. В исследовании рассматривается, каким образом пословицы передаются с точки зрения сохранения их смысла, формы и культурной специфики. Анализ показывает, что в переводе преимущественно применяются стратегии свободного перевода и локализации, тогда как в отдельных случаях для достижения единства формы и содержания используется дословный перевод. В статье также освещаются вопросы сохранения культурной самобытности при переводе произведений узбекской литературы.*

Ключевые слова: *переводоведение, перевод пословиц, культурная самобытность, Гафур Гулям, «Mening o‘g‘rigina bolam».*

XX asr o‘zbek adabiyotining namoyondalaridan biri G‘afur G‘ulom o‘zining hikoya va qissalari bilan o‘quvchilar qalbidan alohida joy olgan yozuvchidir. Uning “Shum bola” va “Mening o‘g‘rigina bolam kabi hikoyalari Markaziy Osiyodagi ijtimoiy hayotni to‘la to‘kis aks ettirgan. Shuningdek, o‘zbeklarga xos bo‘lgan xarakterni namoyon etishda muhim manba sifatida ko‘rsatilishi mumkin. G‘.G‘ulomning “Shum bola” (A naughty boy) qissasi I.To‘xtasinov tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan bo‘lsa, “Mening o‘grigina bolam” hikoyasi esa Mahmuda Saydumarova tomonidan tarjima qilingan. O‘zbek adabiyotining ingliz tiliga tarjima qilinishi global miqyosida nafaqat o‘zbek adabiyotini, balki adabiyot orqali mentalitetni, madaniyat, urf odat, millatni butun ommaga namoyon etish mumkin. Shuning uchun ham bu kabi tarjimalar biz uchun muhimdir.

Tarjima jarayonida tarjimondan ham alohida mahorat talab etiladi. Zero, tarjimon yozuvchining fikrini to‘la to‘kis namoyon etishga harakat qilishi kerak. Garchi, ekvivalentlikning maksimal darajasiga yetish imkonsiz bo‘lsa-da, dinamik ekvivalentlik (E. Nida cited in *An Encyclopaedia of Translation*. n.d.) orqali imkon qadar adekvatlikka erishish mumkin. Ushbu maqolada G‘afur G‘ulomning “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasi va uning Mahmuda Saydumarova tomonidan qilingan tarjimasini tahlilga tortamiz. . “Ushbu lavhada o‘zbek xalqiga xos ikki xislat namoyon bo‘lgan. Birinchisi — o‘zbeklarning bolajonligi, ikkinchisi esa — insonparvarlik ruhining ustunligidir. Agar kampirda odamiylik bo‘lmaganida, u o‘g‘riga bunchalik samimiy munosabatda bo‘lmasdi. Bu yerdagi kampir shunchaki o‘g‘riga rahm qilgan ayol emas, balki jamiki o‘zbek onalarining timsolidir”. (Khalimova, N.A. Khusanova, D. 2024). Har bir xalqning o‘ziga xo surf odatlarini namoyon etuvchi, asrlar osha insonlarning tajribasi, turmush kechinmalari natijasida yuzaga kelgan maqol v matallarning tarjimasi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu hikoyada ham maqollardan samarali foydalanilgan.

Masalan:

Asliyatda: *«Turib yeganga turumtog‘ chidamas», deganlar. Eh-ha, bu bolalar qachon ulg‘ayadi-yu, qachon o‘zining nonini topib yeydigan bo‘ladi! (G‘. G‘ulom,)*

M.Saydumarova tarjimasida: *A mountain of money is never enough for spending, as they say. When will these little ones grow up and eat from their own earning?(G‘.G‘ulom.)*

Ushbu parchada maqolning ma’nosi ishlamay, faqat o‘tirib ovqatlanish uchun hech qanday boylik yetmay qolishi ya’ni mehnat qilmay faqt yeb yotaversa inson kun kechirishi qiyin ekanligi tushuntiriladi. Tarjimon “*turumtog‘” (pul tog‘i)*ini *“mountain of money”* deb, *“turib yegan”*ni esa *“spending”* deb tarjima qilgan va umumiy ma’noni saqlab qolgan. Ushbu o‘rinda erkin tarjima qo‘llanilgani uchun ham shakl o‘zgargan.

Asliyatda: - *To‘g‘ri aytasiz, buvijon, - dedi o‘g‘ri, - mening ham ikki bolam, xotinim, bitta kampir onam bor, bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak, deganlaridek, shularni boqishim kerak.*

M.Saydumarova tarjimasida: - *“You speak the truth, grandmother,” the thief said. “I also have a wife, two children, and my old mother to take care of. Like they say, a chicken needs both seeds and water to survive; so I have to provide for my family*

Maqolning asl ma’nosi har bir tirik mavjudotga, hattoki tovuqdek jonzotga ham omon qolishi uchun turli narsalarga ehtiyoj bor, xuddi shu kabi insonlar ham yashashi uchun turli narsalarga muhtoj. Tarjimada so‘zma-so‘z tarjima metodidan foydalanilgan bo‘lib, bu orqali ma’nova shakl saqlangan.

Ushbu hikoyada o‘zbek xalq donoligiga xos bo‘lgan xususiyatlardan biri qisqa lo‘nda fikr va gaplar orqali tugal ma’no berish odatini ko‘rish mumkin. Ba’zi o‘rinlarda ingliz tiliga tarjima jarayonida bu qisqalikni saqlash murakkab jarayon bo‘lishini hisobga olgan holda, faqatgina ma’noni saqlashga harakat qilingan. Zero, tarjimada asosiy maqsad ham ma’noni saqlashdir. Shakl va mazmun uyg‘unligiga harakat har bir tarjimondan talab qilinadigan asosiy mezon bo‘lsa-da, mazmun ham alohida ahamiyat kasb etadi. G‘afur G‘ulomning "Mening o‘g‘rigina bolam" hikoyasi va uning Mahmuda Saydumarova tomonidan ingliz tiliga qilingan tarjimasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, tarjima jarayonida ma'no darajasida ekvivalentlikka erishilgan. Ushbu tarjima o‘zbek adabiyotini va u orqali o‘zbek madaniyati, urf-odatlari hamda xalq donishmandligini jahon o‘quvchisiga tanitishda muhim qadam bo‘lib, kelajakda bunday tarjimalarda madaniy o‘ziga xoslikka ko‘proq e'tibor qaratish, izoh va sharhlar bilan boyitish orqali adekvatlik darajasini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. An encyclopaedia of translation. (n.d.). Google Books.
2. https://books.google.co.uz/books?hl=ru&lr=&id=4fWf1WlCStcC&oi=fnd&pg=PA223&dq=dynamic+equivalence+in+translation&ots=3d_t0ZBnD7&sig=snh3BbnsbQ2fjzLo-5GcVZNBeiU&redir_esc=y#v=onepage&q=dynamic%20equivalence%20in%20translation&f=false
3. Khalimova, N. A., & Khusanova, D. (2024). Issues of artistic skill in english translations of uzbek stories and narratives of 20th century. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "INNOVATIVE APPROACHES IN STUDY OF THE LANGUAGE, LITERATURE, TRANSLATION, TOURISM AND CULTURAL HERITAGE ON THE SILK ROAD". https://doi.org/10.5281/ZENODO.11083248
4. Saydumarova, M. (Ed. & Trans.). (2013).A collection of Uzbek short stories. Bloomington, IN, USA.
5. G‘ulom,G.(2019).Mening o‘g‘rigina bolam:qissalar va hikoyalar. Yangi asr avlodi